



1. Qaysi operator Python dasturlash tilida shartli sikl ko'inishida ishlaydi?
2. Shart bo'yicha sikl operatorining hisoblagich ko'inishidagi sikl operatoridan farqi nimada?
3. Shart bo'yicha sikl operatorining yana qanday turini bilasiz?



1. 0 dan 20 gacha bo'lgan juft sonlarni ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.
2. n va k butun manfiy bo'lmagan sonlar berilgan. n va k qatnashgan ushbu ifodani hisoblang. $\frac{n!}{k!(n-k)!}$
3. a va b natural sonlar berilgan. a dan b gacha bo'lgan sonlar orasidan faqat juftlarini chiqaruvchi dastur tuzing. Bu yerda $a \leq b$.
4. n natural soni berilgan. Kvadrati n dan kichik bo'lgan barcha natural sonlarni chiqaruvchi dastur tuzing.

54-DARS. AMALIY MASHG'ULOT

Misol. $S=1*2+3*4+5*6+...+99*100$ ifodani hisoblash dasturini tuzing.
 $S=1*2+3*4+5*6+...+99*100 \Rightarrow \sum_{i=1}^{99} i*(i+1), i=i+2$

No	Blok-sxema	Blok-sxema nomi	Dastur kodi
1		Algoritmning boshlanishi	
2		Kiritish bloki	$i=1$ $s=0$
3		Shart tekshirish bloki	while $i \leq 99$:
4		Bajarish bloki	$s=s+i*(i+1)$ $i+=2$
5		Chiqarish bloki	print(s)
6		Algoritmning tugashi	
i ning boshlang'ich qiymati 1 ga teng.Yig'indi hisoblanayotganligi uchun s ning boshlang'ich qiymatini 0 deb olamiz. $0+1*2+3*4+...+99*100$			169150